

## TIL JAMIYATNING ASOSIY TAYANCHI

*O'zbekiston Respublikasi*  
*IIV Akademiyasi katta o'qituvchisi, f.f.n.,*  
**Axmedova Gulnoza Atanazarovna**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada milning xalq mustaqilligining asosiy belgisi, jamiyatning asosiy tayanchi sifatidagi jihatiga ahamiyat qaratilgan. Til siyosati bo'yicha qabul qilingan hujjatlar, davlat tilida ish yuritish borasida mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar to'g'risida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *jamiyat, til, qonunchilik, hujjat, til siyosati, ish yuritish.*

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir. Xalq mustaqilligining asosiy belgisi – bu ona tili va milliy madaniyati. Shuning uchun dunyoning barcha davlatlari o'z ona tillarini asrab-avaylashga intilishadi, shuning uchun har qanday davlat o'zining madaniy merosi va ona tilini alohida hurmat qiladi. Millatlarni ajratib turuvchi asosiy belgilaridan biri bu til ekan, har bir inson o'z tilini bilishi, uni ulug'lashi va shu bilan birga boshqa millatlarning ona tiliga ham hurmat bilan qarashi lozim. Shundagina tilning, millatning qadri va obro'si, nufuzi oshadi. Yuqori rivojlangan davlatlar darajasiga erishish va raqobatdosh bo'lish uchun O'zbekiston fuqarolari xalqaro tillarni bilishlari muhim, albatta. Chunki biz global rivojlanish tendensiyalaridan orqada qola olmaymiz, lekin shuni unutmaslik kerakki, o'zbek tili dunyodagi barcha rasmiy tillar qatori suveren til maqomini olgan ekan, har bir O'zbekiston fuqarosi davlat tilini bilishi shart. Bu haqda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil dekabr oyida O'zbekiston parlamenti va xalqiga murojaatnomasida ona tilini bilishga e'tiborni kuchaytirish zarurligini, milliy o'zligimizning timsoli bo'lgan, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimizga e'tibor yanada kuchaytirilishi lozimligini ta'kidladilar: "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi". Binobarin, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, chet tilini bilish kerak, lekin ona tilini bilishga, o'rganishga majbur qilishimiz kerak.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida davlat tilining o'rni va nufuzi tobora oshib bormoqda. O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash maqsadida bir qancha hujjatlar ishlab chiqildi. Prezidentimizning 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga binoan, "Davlat tili haqida"gi qonun qabul qilingan kunning ulkan

tarixiy oʻrni va ahamiyatidan kelib chiqqan holda, 21-oktyabr sanasi yurtimizda Oʻzbek tili bayrami kuni deb belgilandi. 2020-yil 10-aprelda esa Oʻzbek tili bayrami kunini belgilash toʻgʻrisida qonun qabul qilindi. 2020-yil 20-oktyabrda bu borada yana bir muhim hujjat — Prezidentimizning “Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni imzolandi.

2019-yil 21-oktyabr kuni Prezidentimizning «Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi farmoni ayni shu omillarni inobatga olgan holda qabul qilingani, shubhasiz. Koʻp oʻtmay mazkur hujjatga muvofiq, Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti faoliyati yoʻlga qoʻyildi. Davlat boshqaruvi organlari, xoʻjalik birlashmalari, hokimliklar tuzilmalarida rahbarning maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini taʼminlash masalalari boʻyicha maslahatchisi lavozimi joriy etildi. Ushbu hujjatlar natijasi sifatida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashabbusi bilan yaratilgan «Davlat tilida ish yuritish» nomli mazkur yangi qoʻllanmani alohida taʼkidlash zarur. Qoʻllanmada ish yuritish faoliyatida eng koʻp foydalaniladigan hujjatlar, ularni tuzish tartib-qoidalari tegishli namunalari bilan berilgan. Oʻz navbatida, kitobdan ish yuritishga oid lugʻat oʻrin olgan.

Oʻzbek tilining jamiyatdagi oʻrni, rivoji haqida gapirganimizda yana bir muhim masalaga eʼtibor qaratsak yaxshi boʻlardi. Bu koʻchalardagi peshlavhalar, ijtimoiy obyekt nomlariga nom berish masalasi. Chunki ijtimoiy obyektlarga nom berish – bu shunchaki shaxsiy ish emas. Bu barchamizning vatanparvarlik va maʼnaviy saviyamizni yaqqol koʻrsatadigan oʻziga xos mezondir. Misol keltiradigan boʻlsak, xususiy maktabgacha taʼlim tashkilotlari, oʻquv markazlari nomlari inventarizatsiya qilinganda, qariyb 90 foiz nomlar oʻzga tilda ekanligi aniqlandi. Mazkur muammoni hal qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 16-martdagi “Savdo, ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish obyektlariga nom berishni takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 144-sonli qarori eʼlon qilindi. Qaror asosida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini oʻqitish va malaka oshirish markazida nomlash xizmati yoʻlga qoʻyildi.

Davlatimiz rahbari taʼkidlaganidek, hozirgi kunda Yangi Oʻzbekistonni barpo etishga qaratilgan ezgu intilish va harakatlarimiz hal qiluvchi bosqichga koʻtarilmoqda. Bu yoʻlda milliy oʻzligimiz, gʻurur-iftixorimiz timsoli boʻlgan ona tilimiz, hech shubhasiz, beqiyos kuch-qudrat va ilhom manbai boʻlib xizmat qiladi. Bu haqda soʻz borganda, Prezidentimizning 2020-yil 20-oktyabrda imzolangan «Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi farmoni alohida eʼtiborga sazovorligini taʼkidlash lozim. Mazkur hujjatda oʻzbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obroʻ-eʼtiborini tubdan oshirish, mamlakatimizda davlat tilini toʻlaqonli joriy etishni taʼminlashga doir istiqboldagi vazifalar koʻzda tutilgan.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda barcha soha va tarmoqlar kabi ona tilimiz qadri va nufuzini yanada oshirish borasidagi siyosat va amaliy ishlar ham yangi bosqichga

ko'tarilmoqda. Buni o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi va obro'-e'tiborini tubdan oshirish bo'yicha qabul qilingan tarixiy farmon va qarorlar samaralari yaqqol tasdiqlaydi. Xususan, Vazirlar Mahkamasi tarkibida Davlat tilini rivojlantirish departamenti hamda O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi faoliyat ko'rsatmoqda. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tarkibida amaliy filologiya va kompyuter lingvistikasi bo'yicha yangi yo'nalishlar ochilgan. Universitet qoshida Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi, maxsus o'quv kurslari hamda Alisher Navoiy xalqaro jamg'armasi tashkil etilgan. Ushbu markazda barcha tashkilot xodimlarining davlat tilida ish yuritish bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish maqsadi ko'zlangan.

O'tgan davrda o'zbek tilini chuqur o'rganish va o'rgatishga xizmat qiladigan o'nlab kitob, qo'llanma va lug'atlar nashr qilingan. Shuningdek, chet el fuqarolari va yurtdoshlarimizga o'zbek tilini o'rgatadigan onlayn platforma, o'zbek tili izohli lug'atining mobil ilovasi, xorijdagi vatandoshlarimiz uchun maxsus veb-sayt yaratilgan. Shu ma'noda, O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi – Yangi O'zbekistonni barpo etish va uchinchi Uyg'onish davri poydevorini mustahkamlashga qaratilgan Taraqqiyot strategiyasi talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotgani har qancha tahsinga loyiq. Xulosa qilib aytganda, ona tili millatning ruhi, borligimiz va birligimiz, davlat timsoli ekanini e'tiborga olgan holda, uni asrash va rivojlantirish har bir fuqaroning insoniy burchi hisoblanadi. Binobarin, o'zbek tilini yanada rivojlantirish, uning davlat tili sifatidagi o'rni va nufuzini yanada mustahkamlash borasida oldimizda katta va mas'uliyatli vazifalar turibdi. Zero, yurtboshimiz aytganidek: "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim. Bu olijanob harakatni barchamiz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak".

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'zbekiston. – T. 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T: "O'zbekiston", 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 1-T., 2017.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 20 yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin

hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-son qarori.

6. Mahmudov N, Madvaliev A, Mahkamov N, Aminov M. O'zbek tilida ish yuritish. – T., 2020.